ISNN:2181-1296



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

ANIQ VA TABIIY FANLAR SERIYASI

Matematika, Mexanika, Informatika
Fizika, Kimyo, Biologiya, Geografiya

№ 5/1 (141)
2023

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК **SCIENTIFIC JOURNAL**

2023-yil, 5-son (141) **ANIQ VA TABIY FANLAR SERIYASI**

Matematika, Mexanika, Informatika, Fizika, Kimyo, Biologiya, Geografiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

ANIQ FANLAR

SH.A.ALIMOV - O‘zFA akademigi
S.N.LAKAYEV - O‘zFA akademigi (SamDU)
M.M.MIRSAIDOV - O‘zFA akademigi
A.S.SOLEEV - f.-m.f.d., professor (SamDU)
I.A.IKROMOV - f.-m.f.d., professor (SamDU)
B.X.XO‘JAYAROV - f.-m.f.d., professor (SamDU)
A.G.YAGOLA - f.-m.f .d., professor (Moskva davlat universiteti, Rossiya)
I.I.JUMANOV - f.-m.f .d., professor (SamDU)
X.X.XUDOYNAZAROV - t.f.d., professor (SamDU)
ALBERTO DEL BIMBO - Florensiya universiteti professori, Italiya
L.SABIROV - f.-m.f .d., professor (SamDU)
A.JUMABOYEV - f.-m.f .d., professor (SamDU)
N.N.NIZAMOV - f.-m.f.d., professor (SamDU)
O.Q.QUVONDIQOV - f.-m.f.d., professor (SamDU)
I.A.RAXMATULLAYEV - f.-m.f .d., professor
A.SH.YARMUXAMEDOV - f.-m.f.n., (SamDU)
X.S.XAYDAROV - f.-m.f.n., dotsent (SamDU)

TABIY FANLAR

M.X.ASHUROV - O‘zFA akademigi
N.B. FERAPONTOV - k.f .d., professor (Moskva davlat universiteti, Rossiya)
SH. M. TUGIZOV - professor, Koliforniya universiteti, AQSh
H. I. AKBAROV - k.f.d., professor (O'zMU)
E. A. ABDURAXMONOV - k.f.d., professor (SamDU)
N. K. MUXAMADIYEV - k.f.d., professor (SamDU)
L. A. BULAVIN - Kiev milliy universiteti professori, Ukraina
X. Q. XAYDAROV - b.f.d., professor (SamDU)
Z. I. IZZATULLAYEV - b.f.d., professor (SamDU)
Sh. T. XOLIQULOV - g.f.d., professor (SamDU)
S. B. ABBASOV - g.f.d., professor (SamDU)
Q. S. YARASHEV - g.f.d., professor (SamDU)
GUN-SIK PARK - Seul univeriteti professori, Koreya
D.B.XURSANOV - g.f.f.d., dotsent (SamDU)
M. S. QUZIYEV - b.f.f.d., dotsent (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA

Икромов И.А, Баракаев А.М. *Об ограниченности максимальных операторов для выпуклых функций, не имеющих конечный линейный тип*…….....	3-10
Safarov A.N., Muzafarov A.M., To‘xtayev U.O‘., Tog‘ayev B.S., Salimov Sh.G‘., Esanov I.T. *Tabiiy suvlar tarkibidagi radionuklidlar miqdorini radiokimyoviy radiometriya usullari yordamida aniqlash metodikasi*……..	11-20
Ruziyev J.E., Abduraxmanov I.E., Suvonqulov Sh.B. *Analitik obyektlardagi bariy ionlarini ionometrik aniqlash*……..	21-25
O‘rozov S., Aslanov Q., Qo‘ldoshev O. *Oltingugurt qoplamali fosforli o‘g‘itlar olish*……..	26-30
Mamatov Sh., Omonov Sh. *Differensial tenglamalar misolida fanlararo bog‘lanish*……..	31-35
Ахмеджанов Ф.Р., Тугалов Ф.Б., Курбанов Ж.О. *$NaCl_xBr_{1-x}$ кристалларининг акустик хоссалари*……	36-40
Inxonova A., Eshtursunov D., Botirov S., Murtazaqulov M., Bekchanov D. *Oqava suvlarni biologik tozalashda pvc&pei asosida olingan mis polimer komlpleksining qo’llanilishi*……	41-48
Qurbonov P.R. *O‘zbekiston respublikasi urbanistik tarkibi rivojlanishining geografik jihatlari*.....	49-55
Ikromov I.A., Jo‘raqulov A.J. *Regulyarlashtirilgan o‘lchovning bahosi haqida*……	56-63
Байжуманов А.А., Бердимуродов М.А. *Метод решения систем нелинейных булевых уравнений на основе минимизации дизъюнкций сложных конъюнкций*……	64-70
Abdullayev J.U. *Uglevodorodlar asosida spirtlar sintezi*……	71-75
Boyqobilov D.B., Jumag‘ulov Sh.H., Ro‘zimuradov O.N. *Tartiblangan titan dioksid nanotrubkalarining shakllanishi*……	76-80
Ахмеджанов Ф.Р., Мустафаев Т.Ш., Эшниязов О.И., Нуждов Г.С., Авдиевич В.Н. *Лантан трифторид кристалларида ионларнинг харакатига эластик деформациянинг таъсири*……	81-85
Хайдаров И.К. *Моделирование переноса растворенного вещества в неоднородном пороупругом глинистом сланце*……	86-91
Urolov Sh.Z., Shaymardanov Z.Sh., Jalolov R.R., Rustamova B.N., Arziqulov E.U. *Rux oksidi nanostrukturalarining morfologik va kristallografik xossalarining sintez sharoitiga bog‘liqligi*……	92-99
Zufarov A.M., Sagdeyev D.O., Galyametdinov Yu.G., Muxamadiyev N.K. *Turli xil anion stabilizatorlar bilan stabillashgan* CdS *sintezi va uning fotokatalitik xossalari*……	100-108

UDK: 300.565(575.1) **DOI: https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v5.141.1.2336**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI URBANISTIK TARKIBI RIVOJLANISHINING GEOGRAFIK JIHATLARI

P.R.Qurbonov
Qarshi davlat universiteti
E-mail: pahlavon82@mail.ru

Annotatsiya. maqolada O‘zbekiston Respublikasini hududiy urbanistik to‘ri va tarkibining tuzilishi, shaharlar va shaharchalar soni, ularning funksional tiplari va klassifikatsiyasidagi o‘zgarishlar hamda geodemografik rivojlanishi masalalari o‘rganilgan. Natijada O‘zbekiston Respublikasi shaharlar iyerarxiyasi bir me’yorda shakllanmaganligi, eng ko‘p shaharlar kichik shaharlarga to‘g‘ri kelishi, ularning ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yaxshi rivojlanmaganligi, aholiga ish o‘rinlarining yetishmasligi kabi ko‘plab muammolarning mavjudligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Shahar, shaharcha, shaharlar iyerarxiyasi, urbanistik tarkib, yirik shahar, o‘rta shahar, kichik shahar, urbanizatsiya darajasi, ko‘p funksiyali shahar.

Географические аспекты развития урбанистическая состава Республики Узбекистан

Аннотация. в статье рассматривается структура территориальной городской сети и состав Республики Узбекистан, количество городов и поселков, изменения их функциональных типов и классификации, геодемографическое развитие. В результате иерархия городов Республики Узбекистан сложилась неравномерно, большая часть городов соответствует малым городам и они недостаточно развиты в социальном и экономическом отношении, существует множество проблем, таких как нехватка рабочих мест для население.

Ключевые слова: город, поселок, иерархия городов, городской состав, крупный город, средний город, малый город, степень урбанизации, многофункциональный город.

Geographical aspects of the development of the urban composition of the Republic of Uzbekistan

Abstract. the article examines the structure of the territorial urban grid and structure of the Republic of Uzbekistan, the number of cities and towns, changes in their functional types and classification, and geodemographic development. As a result, the hierarchy of the cities of the Republic of Uzbekistan has not developed uniformly, most of the cities correspond to small cities and they are not well developed socially and economically, and there are many problems such as the lack of jobs for the population.

Keywords: City, town, hierarchy of cities, urban composition, large city, medium-sized city, small city, degree of urbanization, multifunctional city.

Urbanizatsiya hozirgi zamonning eng muhim ijtimoiy iqtisodiy jarayonlaridan biri hisoblanib, u barcha mamlakatlarda qishloq-shahar yo‘nalishida aholi migratsiyasining kuchayishi, qishloq xo‘jaligi bo‘lmagan sohalarning ustuvor rivojlanishi (xususan axborot, servis, turizm va x.k.), shahar turmush tarzining tarqalishi va boshqalarda o‘z aksini topadi. Biroq, bugungi globallashuv sharoitida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu jarayonning sur’ati va yo‘nalishi turlicha amalga oshmoqda. Mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining rivojlanishida, yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko‘rsatish sohalari va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushini oshirish, shahar va tumanlarni komleks rivojlantirishda urbanizatsiya jarayonining naqadar dolzarb ekanligini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham ko‘rishimiz mumkin. ...“Bugungi kunda mamlakatimizning urbanizatsiya darajasi 35,5 foizni tashkil etadi va hozirdan boshlab zarur choralar ko‘rilmasa, ushbu ko‘rsatkich yaqin kelajakda pasayishi mumkin”.

Davlat rahbari ushbu muammoning yechimi sifatida O‘zbekiston hukumatiga mamlakat aholisining urbanizatsiya darajasini 2030 yilga qadar 60 foizga yetkazish bo‘yicha Davlat dasturini ishlab chiqish, bunda faqat poytaxt va viloyat markazlari bo‘lgan shaharlarni emas, avvalo, hududlarda

joylashgan shahar va posyolkalarni kompleks rivojlantirishga e'tibor qaratish, shahar va posyolkalarda ko‘p qavatli uylar qurishga, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini ham uy-joylarni qurish dasturlari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlantirish zarurligini qayd etib o‘tdi [3].

Mazkur maqsadlarga erishish esa o‘z navbatida mamlakat urbanistik to‘ri va tarkibini ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilgan holda, o‘zining geografik o‘rni, demografik va iqtisodiy salohiyatidan kelib chiiqan holda rivojlanish qutblari bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaharlarni aniqlash, bir-biriga o‘xshash tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga va demografik vaziyatga ega shaharlarni alohida guruhlarga ajratish orqali, mazkur guruh shaharlari rivojlanishi uchun asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi. Mazkur tadqiqot ishi shu va shunga o‘xshash muammolarni tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Shaharlar rivojlanishi va ular bilan bog‘liq urbanizatsiya jarayoni iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida eng ko‘p tadqiq qilingan yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Jumladan, shaharlar klassifikatsiyasi va tipologiyasi bilan sobiq Ittifoq – hozirgi MDH mamlakatlarining yirik urbanist olimlari V.G.Davidovich, A.A.Mins, O.A.Konstantinov, I.M.Mayergoyz, G.M.Lappo, B.S.Xorev, Ye.N.Persik, Yu.L.Pivovarov, V.Sh.Djoashvili kabilar yaqindan shug‘ullanishgan [4]. O‘zbekistonda esa ko‘rilayotgan muammoning geografik jihatlari E.A.Ahmedov, I.V.Smirnov, T.I.Raimov, O.B.Ata-Mirzayev, A.S.Soliyev, A.A.Qayumov, S.S.Zokirov va boshqalar tomonidan batafsil o‘rganilgan. Shuningdek, alohida mintaqalar doirasida T.N.Mallaboyev, Sh.B.Imomov, Z.T.Raimjonov, Z.T.Abdalova, M.M.Egamberdiyevalar tadqiqotlar olib borishgan.

Jumladan, aholi punktlarini ilmiy jihatdan tadqiq egan yirik nazariyotchi olim V.G.Davidovich 1960 yillarda “Shahar manzilgohlarini o‘rganishda mazkur aholi manzilgohlarining funksional tiplarini aniqlash markaziy o‘rinni egallaydi. Aynan shaharlarning funksional tiplari, ularning aholi sonini va rayon hosil qiluvchi rolini belgilab beradi deb ta'kidlaydi [5].

Shahar manzilgohlarini aholi soni bo‘yicha guruhlashtirishda F. M. Listengurt (1989) 4 ta sinfga ajratsa, yirik urbanist – olimlar, g.f.d. professor G.M.Lappo (1997), Yu.L.Pivovarovlar (1999) bir-biridan farqli ravishda 6 ta sinfga ajratishadi [6].

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Shaharsozlik kodeksida urbanizatsiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: - Urbanizatsiya – aholining ijtimoiy-kasbiy va demografik tuzilishida ijobiy o‘zgarishlarga, uning turmush tarzi hamda madaniyati sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarilishiga ko‘maklashuvchi, jamiyat va iqtisodiyotni rivojlantirishda shaharlarning rolini oshirish, shuningdek shahar infratuzilmasini shakllantirish jarayoni. Urbanizatsiya, qoida tariqasida, shahar atrofini shahar hududiga kiritish, bir nechta aholi punktlarini yagona makonga birlashtirish bilan birga olib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududiy urbanistik tarkibini tahlil qilishda tarixiy va geografik taqqoslash, tizim-tarkib, matematik, statistik usullardan hamda mazkur sohaga tegishli bo‘lgan qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, hukumat qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, “Shaharsozlik kodeksi”, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida, xususan, shaharlar geografiyasi va urbanizatsiya jarayonlarini o‘rganishda yaratilgan nazariy bilimlar, mazkur muammolar bilan shug‘ullangan olimlarning ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanilgan.

O‘zbekiston Respublikasida shahar aholisi salmog‘ining o‘zgarib borishi ichki va tashqi omillar ta'sirida turli davrda turlicha kechgan. Bu, birinchidan, respublikaning “shahar” maqomiga bo‘lgan munosabatiga, ishlab chiqarish kuchlarining joylanish va rivojlanish xususiyatlariga hamda shaharlarni shakllantirish maqsadlariga bog‘liq bo‘lgan. Shu nuqtai nazardan urbanizatsiyaning ekstensiv va intensiv rivojlanish xususiyatini ko‘rsatish mumkin. Intensiv rivojlanish ko‘proq respublika iqtisodiyotida sanoat va boshqa qishloq xo‘jaligi hisoblanmagan tarmoqlarning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, urbanizatsiyaning ekstensiv shakli ko‘proq yangi shahar va shaharchalarning vujudga kelishi bilan yuz beradi. Aynan shu shakl respublika urbanizatsiyasining so‘nggi yillardagi o‘ziga xos to‘lqinlarini ifodalaydi. O‘zbekistondagi aksariyat “yangi” shaharlar o‘tgan asrning 60-80 yillarida qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish, turli qazilma boyliklardan foydalanish davriga to‘g‘ri kelgan[7]. Bunday shaharlar ayniqsa Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida ko‘pchilikni tashkil qiladi. Umuman olganda, shaharlarning tashkil topishi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va tarixiy jarayonlar natijasi bo‘lib, ularning rivojlanishi ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etishi bilan belgilanadi.

Demografik va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar ta'sirida o‘tgan asrning oxirgi choragida yangi shaharlarni vujudga kelishi keskin kamaydi. 2008 yil oxirida respublikada 120 ta shahar va 113 ta

shaharchalar mavjud bo‘lib, ularning 3/5 qismi kichik shaharlarga to‘g‘ri kelgan [9]. O‘rta bosqichdagi shaharlar esa jami shahar manzilgohlarining 7,3 foizini tashkil etgan, xolos. Shaharlar o‘rtasida tafovutlarning kattaligi, mamlakatimizda urbanizatsiyaning real holatini pastligidan dalolat beradi.

2023 yil 1 yanvar holatida O‘zbekiston Respublikasining urbanistik to‘rini jami 1182 ta shahar aholi manzilgohlari, jumladan 120 ta shahar va 1062 ta shaharchalar tashkil etadi [11]. Shu o‘rinda urbanistik to‘r – shahar joylarining “oddiy” sonini aks ettirsa, urbanistik tarkib - ushbu shaharlarning katta-kichikligini, ya’ni ularni sifat nuqtai-nazardan qanday tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi. Har qanday mamlakatning urbanistik tarkibini o‘rganishda, uning asosini tashkil etuvchi shaharlarning funksional tiplari va aholi soniga ko‘ra klassifikatsiyasini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Shu o‘rinda shahar manzilgohlarining aholi soni bo‘yicha klassifikatsiyalashda ma’muriy-boshqaruv va me’yoriy-huquqiy hujjatlarda hamda ilmiy adabiyotlarda tafovutlar mavjud. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 fevralda tasdiqlangan yangi tahrirdagi Shaharsozlik kodeksida shaharlar va shaharchalar aholi soniga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratiladi [1]:

A) Shaharlar:

eng yirik — aholisining soni bir milliondan ortiq kishidan iborat;

yirik — aholisining soni ikki yuz ellik mingdan bir milliongacha kishidan iborat;

katta — aholisining soni yuz mingdan ikki yuz ellik minggacha kishidan iborat;

o‘rtacha — aholisining soni ellik mingdan yuz minggacha kishidan iborat;

kichik — aholisining soni ellik minggacha kishidan iborat bo‘lgan shaharlar.

B) Shaharchalar:

katta — aholisining soni yigirma mingdan ortiq kishidan iborat;

o‘rtacha — aholisining soni o‘n mingdan yigirma minggacha kishidan iborat;

kichik — aholisining soni o‘n minggacha kishidan iborat bo‘lgan shaharchalar.

Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida” 2020 yil 28 avgustida qabul qilingan qonunda shahar va shaharchalarning xuquqiy me’yorlari aniq belgilab qo‘yilgan. Jumladan, tuman bo‘ysunuvidagi **shaharlar** — aholisining soni, qoida tariqasida, kamida yetti ming kishi bo‘lgan, sanoat korxonalariga va rivojlangan infratuzilmaga ega bo‘lgan aholi punktlari;

shaharchalar — aholisining soni, qoida tariqasida, kamida ikki ming kishi bo‘lgan, sanoat korxonalari, temir yo‘l stansiyalari va boshqa muhim obyektlar yaqinida joylashgan, fuqarolar yig‘inlaridan (mahallalardan) iborat bo‘lgan aholi punktlari” - deb ta’rif berilganligini qayd etib o‘tish lozim [2].

Respublika urbanistik to‘rini huquqiy maqomiga ko‘ra 10,2 foizini shaharlar va 89,8 foizini shaharchalar tashkil etadi. 1-rasm ma’lumotlaridan mavjud 10 ta guruhning faqatgina 2 tasida, ya’ni 3 minggacha va 3-4,9 ming aholi mavjud bo‘lgan guruhlardigina shaharlar mavjud bo‘lmasa, shaharchalar aksincha aholisi 50 ming kishidan ortiq bo‘lgan guruhlarda uchramasligini ko‘rish mumkin.

1-rasm.

O‘zbekiston Respublikasi urbanistik to‘rining huquqiy maqomiga ko‘ra tarkibi



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasining O‘zbekiston demografik yillik to‘plami. –Toshkent. - 2022 y [10].

Har ikkala shahar aholi manzilgohlar bor bo‘lgan guruhlar soni 3 ta bo‘lib, aynan shu guruhlardagi shaharchalar yaqin yillarda shahar maqomini olishga asosiy davogar hisoblanadi.

Jumladan, aholisi 20-49,9 ming kishigacha bo‘lgan – “yarim o‘rta” shaharlar guruhida jami 79 ta shahar aholi manzilgohlari mavjud bo‘lib, ularning 60,8 foizini shaharlar va 39,2 foizini shaharchalar (shaharsozlik kodeksi me’yorlariga ko‘ra “katta shaharchalar”) tashkil etadi. Aholisi 10-19,9 ming kishilik - kichik shaharlar guruhida mavjud jami 150 ta shahar manzilgohlaridan 17,3 foizini shaharlar va 82,7 foizini shaharchalardan iborat. 5-9,9 ming kishilik – mayda shaharlar guruhida shaharlar soni 3 tani, shaharchalar soni 336 tani tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi statistik hisobotlarni yuritishda shahar manzilgohlarini aholi soniga ko‘ra 10 ta guruhga (3-ming kishigacha, 3-4,9 ming, 5-9,9 ming, 10-19,9 ming, 20-49,9 ming, 50-99,9 ming, 100-249,9 ming, 250-499,9 ming, 500-999,9 ming va 1 mlndan ortiq) ajratgan holda, statistik ma’lumotlarni tahlil qilib boradi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xususan shaharlar geografiyasida, shuningdek, maxsus ilmiy tadqiqotlarda shaharlarni aholi soniga ko‘ra quyidagi sinflarga ajratib o‘rganiladi [8].

- 10 minggacha - mayda shahar
- 10-20 ming - kichik shahar
- 20-50 ming-“yarim o‘rta” shahar
- 50-100 ming - o‘rta shahar
- 100-250 ming - katta shahar
- 250-500 ming - yirik shahar
- 500-1000 ming - eng yirik shahar
- 1 -5 mln millioner shahar.
- 5 mln dan ortiq “Super” millioner shahar

Albatta shaharlarning aholi soni bo‘yicha bunday pog‘anasimon joylashuvi-iyerarxik tartibi tasodif emas, chunki shaharlar o‘zlarining bajaradigan funksiyasidan kelib chiqqan holda, ma’lum bir demografik salohiyat va sig‘imga ega bo‘ladi.

2-rasm.

O‘zbekiston Respublikasi shahar joylarini aholi soni bo‘yicha klassifikatsiyasi



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasining O‘zbekiston demografik yillik to‘plami. –Toshkent. - 2022 y.

Yuqoridagi 2-rasm diaggramma ma’lumotlari tahlilidan ko‘rish mumkinki, 2022 yil yanvar holatida respublikada mavjud shahar manzilgohlarining eng katta qismi kichik va mayda shaharlar toifasiga tegishli. Aholi soni 10 ming kishigacha bo‘lgan **mayda shaharlarning** umumiy soni 910 tani tashkil etadi yoki respublikada mavjud shahar aholi manzilgohlarining 77,0 foizi aynan ushbu guruhga tegishli. O‘z navbatida mayda shaharlar guruhi ham uchta kichik guruhlarga ajratiladi. Birinchi kichik

guruh 3 ming kishigacha aholisi mavjud shaharchalar bo‘lib, ularga jami mayda shaharlarning 19,8 foizi to‘g‘ri keladi.

Shu o‘rinda, “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida” 2020 yil 28 avgustida qabul qilingan qonunda “Shaharchalar — aholisining soni, qoida tariqasida, kamida ikki ming kishi bo‘lgan, sanoat korxonalari, temir yo‘l stansiyalari va boshqa muhim obyektlar yaqinida joylashgan, fuqarolar yig‘inlaridan (mahallalardan) iborat bo‘lgan aholi punktlari” - deb ta’rif berilganligini qayd etib o‘tish lozim. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasida shaharchalar aholisi soni ikki ming kishidan kam bo‘lmasligi qonun bilan belgilab qo‘yilgan.

Aholi soni 3-4,9 ming kishidan iborat ikkinchi kichik guruh barcha guruhlar orasida shahar joylar mutlaq soni bo‘yicha (391 ta) yetakchi sanaladi. Respublikadagi jami shahar joylarning 33,1 foizi yoki mayda shaharlarning 43,0 foizi mazkur toifaga taalluqli. Uchinchi kichik guruh 5-9,9 ming kishilik aholiga ega bo‘lib, ularning jami soni 339 tani tashkil qiladi (mos ravishda jami shahar joylarning 28,7 foizi yoki mayda shaharlarning 37,2 foizi).

Shu o‘rinda mazkur mayda shahar joylari asosan qishloq fuqarolik yig‘inlari markazlari vazifasini, shuningdek, qisman “resurs” shahar, kichik sanoat yoki rekreatsiya markazi funksiyasini bajarishlarini ta’kidlab o‘tish lozim.

Respublikada mavjud shahar aholi manzilgohlarining 12,7 foizini aholi soni 10-19,9 ming kishigacha bo‘lgan **kichik shaharlar** tashkil etadi. Ushbu shaharlar asosan qadimdan yer-suv resurslari bilan yaxshi ta’minlangan yoki yangi o‘zlashtirilgan hududlarda rejali ravishda tashkil etilgan aholi punktlari bo‘lib, ularning aksariyati funksional tiplariga ko‘ra agrosanoat markazi yoki ayrimlari tuman markazi bo‘lgan shahar manzilgohlaridir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, urbanizatsiyaning geografik ko‘rsatkichi nafaqat shahar joylarning zichligi, balki shaharlarning katta-kichikligi yoki hududiy urbanistik tarkibi orqali ifodalanadi. Sababi, ma’lum bir hududdagi shahar aholisi bir qancha mayda shaharlar yoki son jihatidan uncha ko‘p bo‘lmagan yirik va o‘rta shaharlarda mujassamlashgan bo‘lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, bu yerda hududlarning urbanistik tarkibida katta va yirik shaharlarning mavjudligi nazarda tutiladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil yanvar holati bo‘yicha 100 ming kishidan ortiq aholiga ega bo‘lgan millioner, juda yirik, yirik, katta shaharlarining soni 19 tani tashkil etib, ularga jami shahar aholisining qariyb 41.9 foizi to‘g‘ri keladi. Respublikada bunday shaharlar to‘ri Toshkent viloyatida to‘rtta, Farg‘ona viloyatida uchta, Qashqadaryo viloyatida ikkita, qolgan viloyatlarda bittadan (viloyatlarning ma’muriy markazlari) mavjud bo‘lgani holda, Sirdaryo viloyatida esa katta shaharlar butunlay yo‘q.

Respublika jami shahar joylarning 8,7 foizi, aholisi 50-99,9 ming kishigacha bo‘lgan o‘rta (24 ta) va 20-49,9 ming nafargacha bo‘lgan yarim o‘rta (79 ta) shaharlar guruhiga taalluqli. Mazkur guruh shahar joylarida jami shahar aholisining 22,3 foizi, jumladan o‘rta shaharlarga 9,0 foizi (1613,8 ming kishi) va yarim o‘rta shaharlarga 13,3 foizi (2381,5 ming kishi) to‘g‘ri keladi. O‘rta shaharlar geografiyasi tahlildan, ushbu guruh shaharlari respublika mintaqalari bo‘yicha deyarli teng taqsimlagan bo‘lsada, tabiiy sharoiti nisbatan noqulay Qoraqalpog‘iston Respublikasi (5 ta) va Navoiy viloyatida (2 ta), shuningdek, demografik salohiyati yuqori Toshkent, Namangan viloyatlarida 3 tadan, Andijon, Samarqand, Farg‘ona viloyatlarida 2 tadan shaharlar ushbu bo‘g‘in shaharlaridan iborat. Shuningdek, qolgan barcha viloyatlarda 1 tadan (Jizzax viloyatidan tashqari) o‘rta shaharlar mavjud. Aynan ushbu guruh shaharlari yaqin kelajakda katta shaharlar guruhiga o‘tishga asosiy davogarlar hisoblanadi. Jumladan, hozirgi demografik vaziyat saqlanib qolsa, 2025 yilgacha Quvasoy (99,7 ming), Guliston (97,0 ming), Xiva (95,6 ming) va Denov (94,9 ming) singari o‘rta shaharlar katta shaharlar guruhiga o‘tishadi.

O‘rta shaharlar guruhiga jami shahar aholisining 22,2 foizi yoki 3995,3 ming kishi to‘g‘ri keladi. Shundan, 2381,5 ming kishi 20-49,9 ming aholiga ega shaharlar guruhiga to‘g‘ri kelsa, 1613,8 ming kishi 50-99,9 minglik sinfga taalluqli. O‘rta shaharlar aholisi eng ko‘p bo‘lgan viloyatlarga aholi zichligi yuqori Andijon, Samarqand, Namangan, Toshkent, Farg‘ona viloyatlari kirsa, aksincha Buxoro, Navoiy, Jizzax, Sirdaryo, Xorazm viloyatlarida o‘rta shaharlar aholisi mutlaq soni nisbatan kam. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, respublikaning o‘ziga xos urbanistik tarkibi va rivojlanish ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda aynan o‘rta sinf shaharlarini birinchi navbatda uzoq muddatli rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Chunki, O‘zbekiston sharoitida mintaqalarning o‘sish qutblari va markazlari vazifasini bajarishi uchun aynan mazkur guruh shaharlarining barcha imkoniyatlari yetarli. Jumladan, Denov, Xiva, To‘rtko‘l, Chimboy, Koson,

G‘ijduvon, Urgut, Xo‘jayli, Kattaqo‘rg‘on, Yangiyo‘l, Quvasoy, Chust, Chortoq, Zarafshon, Shaxrixon, Asaka, Parkent, Nurafshon va Quva shaharlari o‘sish qutblari vazifasini asosiy nomzod shaharlar hisoblanadi.

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi shahar joylarining aholi soni bo‘yicha guruhlanishi (01.01.2022 yil holatida)

Ming kishi hisobida

	Jami	Kichik shahalar				O`rta shaharlar		Katta shaharlar			
		3 dan kam	3-4,9	5-9,9	10-19,9	20-49,9	50-99,9	100-249,9	250-499,9	500-999,9	1000 dan ortiq
O‘zbekiston Respublikasi	17935,8	464,5	1535,9	2302,0	2129,5	2381,5	1613,8	1590,3	1868,1	1194,7	2855,5
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	954,2	21,8	23,3	27,9	133,5	110,3	311,1	-	326,3	-	-
Viloyatlar											
Andijon	1699,2	2,8	30,9	271,8	348,1	427,3	159,8	-	458,5	-	-
Buxoro	725,9	82,1	121,7	28,5	99,5	73,0	62,3	-	258,8	-	-
Jizzax	675,3	11,3	45,4	107,1	179,0	146,0	-	186,5	-	-	-
Qashqadaryo	1460,0	41,2	223,1	229,6	210,6	256,2	82,6	142,2	274,5	-	-
Navoiy	505,5	52,4	63,8	32,8	42,4	91,7	75,2	147,2	-	-	-
Namangan	1899,5	5,0	78,3	506,5	188,2	262,7	197,7	-	-	661,1	-
Samarqand	1483,1	35,4	150,3	169,0	147,8	287,0	160,0	-	-	533,6	-
Surxondaryo	993,3	41,8	242,7	178,5	130,1	119,6	93,1	187,5	-	-	-
Sirdaryo	374,3	7,3	38,0	37,6	112,9	106,0	72,5	-	-	-	-
Toshkent	1478,3	72,4	105,8	162,0	129,1	244,1	199,8	565,1	-	-	-
Farg‘ona	2188,7	67,3	313,4	449,5	324,4	164,6	104,4	215,1	550,0	-	-
Xorazm	636,1	23,7	99,2	94,3	83,9	93,0	95,3	146,7	-	-	-
Toshkent shahri	2862,4	-	-	6,9	-	-	-	-	-	-	2855.5

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasining O‘zbekiston demografik yillik to‘plami. –Toshkent. - 2022 y.

O‘zbekiston Respublikasi shahar joylarning 1060 tasi aholisi 20 ming kishigacha bo‘lgan – **kichik shaharlar** guruhiga tegishli bo‘lib, ushbu guruh a’zolarining 29 tasini shaharlar va 1031 tasini shaharchalar tashkil etadi.

2022 yil 1 yanvar holatida **kichik shaharlarda** 6431,9 ming kishi yoki jami shahar aholisining 35,8 foizi istiqomat qilgan. Vaholanki respublikadagi jami shahar joylarining 90 foizga yaqinini kichik shaharlar tashkil etadi, ya’ni ushbu guruh shaharlari respublika urbanistik to‘rida (son bo‘yicha) katta ulushga ega bo‘lsalarda, urbanistik tarkibda (sifat bo‘yicha) yetarli mavqeiga ega emas.

3-rasm.

O‘zbekiston Respublikasidagi jami shahar joylarda kichik shaharlarning ulushi



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasining O‘zbekiston demografik yillik to‘plami. –Toshkent. - 2022 y.

O‘z navbatida kichik shaharlarning hududiy tarkibi ham respublika doirasida turlicha xususiyatlarga ega (3-rasm). Jumladan, kichik shaharlarning mutloq soniga ko‘ra shahar joylarning umumiy miqdori yuqori bo‘lgan Farg‘ona (195 ta), Qashqadaryo (118 ta), Surxondaryo (114 ta) va Namangan (110 ta) viloyatlari yetakchilik qilishsa, xududiy urbanistik tarkibning nisbiy ko‘rsatkichlari, ya’ni mavjud shahar joylarda kichik shaharlarning ulushi bo‘yicha Surxondaryo (95,0 %), Buxoro (94,9 %), Farg‘ona (94,6 %), Xorazm (91,5 %) va Qashqadaryo (91,4 %) viloyatlari asosiy o‘rinlarni egallaydi. Qolgan barcha mintaqalar jami shahar joylarda kichik shaharlar ulishi bo‘yicha respublika o‘rtacha (89,7%) ko‘rsatkichidan past bo‘lib, eng so‘nggi o‘rinni Qoraqalpog‘iston Respublikasi (76,3 %) ga to‘g‘ri keladi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillardan ko‘rish mumkinki, respublikaning urbanistik to‘ri (shaharlar soni) yetarli darajada shakllangan bo‘lib, hozirgi vaqtda uning tarkibini (shaharlarning funksional tiplarini) rivojlantirish urbanistik siyosatda asosiy vazifa bo‘lmog‘i lozim. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi shaharlarining iyerarxik pog‘onasi Sipfa-Styuard qoidasi talablariga to‘liq javob bermaydi. Jumladan, jami shahar joylarning 90 foizga yaqinini kichik shaharlar tashkil etishi, aksincha yirik, katta va o‘rta bo‘g‘in shaharlari ulushining pastligi urbanistik tarkibning noto‘g‘ri iyerarxik tartibini vujudga keltirgan. Bu esa, mamlakatimizda umumiy urbanizatsiya darajasining nafaqat sekin o‘sishiga, shu bilan birga shahar aglomeratsiyalari va urbanizatsiyalashgan hududlarning shakllanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur muammolarni yechimi sifatida respublika bo‘yicha yagona urbanistik siyosatni amalga oshirish, bunda hududlaring tabiiy sharoiti va iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kichik shaharlarda yangi sanoat va ijtimoiy obyektlarni bunyod etish orqali ish o‘rinlari yaratish, o‘rta bo‘g‘in shaharlarida kichik sanoat va erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish orqali ularni o‘sish qutb va markazlariga aylantirish, katta va yirik shaharlaring har biri uchun bosh rejalarni ishlab chiqish orqali ularni rivojlanishiga qulay muhit yaratib berish lozim bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 fevralda tasdiqlangan yangi tahrirdagi Shaharsozlik kodeksi. https://lex.uz/docs/-5307951.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 28 avgustida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida” qonuni. https://lex.uz/docs/-4973063.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-olij-mazhlisga-murozhaatnomasi.
4. Ата–Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р., Салиев А. Историко– демографические очерки урбанизации Узбекистана.– Т.: Университет, 2002.– 126 с.
5. Зокиров С.С. Ўзбекистонда урбанизация жараёнларини тартибга солиш тизимини такомиллаштириш. - Тошкент: Тафаккур, 2020. – 367 б.
6. Лаппо Г.М. Рассказы о городах. - М: Мысль, 1972. – 192 с.
7. Салиев А. Проблемы расселения и урбанизации в республиках Средней Азии. – Т.: Фан, 1991. – 112 с.
8. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdieva M.M.. Shaharlar geografiyasi. O`quv qo`llanma,- T.: 2019, 184 b.
9. Қурбонов П.Р. Жанубий Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари. Монография. -Т.: «MUMTOZ SO`Z». 2019 йил. – 177 б.
10. O‘zbekiston demografik yillik to‘plami. Statistik to‘plam. –Toshkent, 2022. – 212 b.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti. www.stat.uz.